



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

**Jigar sirrozi fonida buyrak shikastlanishini baholashda yangi yondashuvlar
Samadova A.B**

TTA Urganch filiali

Dolzarlighi. Gepatorenal sindrom (GRS) — og‘ir jigar yetishmovchiligi va portal gipertenziya fonida yuzaga keladigan, morfologik o‘zgarishsiz kechuvchi buyrak disfunktsiyasi bo‘lib, jigar sirrozi oqibatida tez-tez uchraydi. So‘nggi yillarda jigar kasalliklari bilan bog‘liq buyrak yetishmovchiligi chastotasi ortib borayotgani, sistotin C kabi yangi markerlarning klinik ahamiyati ilmiy qiziqishni oshirmoqda.

Maqsad. Jigar sirrozi fonida buyrak disfunktsiyasini kliniko-laborator ko‘rsatkichlar asosida baholash va sistotin C ning prognostik ahamiyatini aniqlash.

Material va uslublar. Tadqiqotga 90 nafar jigar sirrozi bilan kasallangan bemor va 30 nafar sog‘lom nazorat guruhi jalb etildi. Sirrozli bemorlar 2 guruhga ajratildi:

buyrak disfunktsiyasi rivojlanmagan ($n=45$)

buyrak disfunktsiyasi rivojlangan ($n=45$).

Barcha bemorlarda laborator va instrumental tekshiruvlar o‘tkazildi: mikroalbuminuriya (MAU), ALT, AST, bilirubin, sistotin C, kreatinin, mochevina, lipid profili, glomerulyar filtratsiya tezligi (KFT, SKD-EPI formulasi bo‘yicha), buyrak tomirlari dopplerografiyasi va jigar elastografiyasi (Fibroscan). Statistik tahlil uchun MS Excel 2010 dasturi qo‘llanildi, $p<0,05$ ishonchlilik mezonini deb olindi.

Natijalar. 1-guruh va 2-guruh bemorlar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlandi. Buyrak disfunktsiyasi rivojlangan bemorlarda:

siydikda MAU sezilarli oshgan ($31,37\pm 2,37$ ga nisbatan $90,35\pm 17,21$, $p<0,05$);

qon kreatinin ($68,8\pm 2,36$ ga nisbatan $141,67\pm 21,25$) va mochevina ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan;

KFT keskin pasaygan ($91,14\pm 3,08$ ga nisbatan $45,6\pm 7,05$, $p<0,05$);

sistotin C darajasi oshgan ($2,43\pm 0,18$ ga nisbatan $7,16\pm 0,80$).

Sistotin C miqdorining oshishi KFT pasayishi ($r=-0,28$) va buyrak qon aylanishining buzilishi bilan ishonchli bog‘liq ekanligi qayd etildi. Kreatinin, mochevina va KFT o‘rtasida kuchli korrelyatsion bog‘liqlik ($r=0,85$; $r=-0,84$) kuzatildi.

Xulosa. Jigar sirrozi fonida buyrak disfunktsiyasi yuqori chastotada uchrayib, kliniko-laborator markerlar (kreatinin, mochevina, MAU) bilan bir qatorda sistotin C diagnostik va prognostik ahamiyatga ega marker sifatida alohida o‘rin tutadi. Buyrak disfunktsiyasining molekulyar mexanizmlarini chuqur o‘rganish ushbu patologiyani erta aniqlash va oldini olishning istiqbolli yo‘nalishlaridan hisoblanadi.